



UDK 656 (075)

YONISH MAXSULOTLARIDA ZAHARLI KOMPONENTLAR HOSIL BO'LISHI

Alimova Zebo Xamidullaevna

t.f.n, professor

Aktamova Sabina Jo'raqul qizi

talaba

Yangiyeva Ismigul Ihomovna

talaba

Annotatsiya: Hozirgi kunning dolzarb mavzularidan biri avtomobil transportida ekologik xavfsizlikni oshirish bo'lib bormoqda. Avtomobil transporti atrof-muhitni ifloslantiruvchi kuchli manba bo'lib, undan atmosferaga chiqayotgan chiqindilar miqdori transport vositalarining soni va texnik holati bilan belgilanadi. Ushbu maqolada yonilg'ilardan foydalanishda avtomobil transportining ekologik xavfsizligi masalasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: avtomobil transporti, chiqindi gazlar, ekologik xavfsizlik, atrof muhitning ifloslanishi.

Havoni zaharlanishini asosiy sabablaridan biri bu yonilgini bir tekis va to'liq yonmaslidir. Yonilg'ini faqat 15 foizigina avtomobilni harakatga keltirishga sarflansa, 85 foizi esa «havoga uchib ketadi». Avtomobil dvigatelining yonish kamerasi zaharli moddalarni sintez qiluvchi va atmosferaga tarqatuvchi kimyoiy reaktordir. Xatto aybsiz azot ham atmosferadan yonish kamerasiga kirib zaharli azot oksidiga aylanadi. Azot oksidi inson organizmini zaharlaydi.

Olimlarning aniqlashicha, havoni ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdorini 55%i avtotransport vositalarining chiqindilariga to'g'ri kelib, uning 90%i esa CO gazidir.

Avtomobil transportidan foydalanishda atrof muhitni zararlantiruvchi $_3$ xil manbani ko'rish mumkin: chiqindi gazlar, karter gazlari va yonilg'i bug'lanishi natijasida hosil bo'ladigan zararli moddalardir.

Dvigatellardan bir necha turdag'i zaharli gaz va moddalar chiqadi. Ulardan eng ko'p miqdordagilar: uglerod oksidi; uglevodorodlar; azot oksidi; akrolein; kanserogen moddalar; tetraetil qo'rg'oshin (agar benzin etillangan bo'lsa); oltingugurt oksidi. Ish zonasidagi havoda akrolein $0.2\text{mg}/\text{m}^3$; uglerod oksidi $20\text{mg}/\text{m}^3$, azot oksidi $5\text{mg}/\text{m}^3$, tetraetil qo'rg'oshin $0.005\text{mg}/\text{m}^3$ dan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Yonilg'ini chala yonishi natijasida quyidagi zaharli komponentlar hosil bo'ladi. Bularga: CO - Uglerod oksidi (bo'g'uvchi gaz - is gazi) 87-98%;

NO, NO_2 - azot oksidlari (19-73%); yonmay qolgan uglevodorodlar (82-96%,); aldegidlar; oltingugurt birikmalari; juda zaharli bo'lgan qo'rg'oshin birikmalari va qurumni ko'rsatish mumkin.

Uglerod oksidi CO - zaharli, rangsiz va hidsiz bo'lib, yonilg'ida kislorod yetarli bo'limganda, ya'ni (α -lbo'lganda) yonilg'i chala yonishida hosil bo'ladi. Uchqundan o't



oldiriladigan IYODlarda quyuq yonuvchi aralashmalardan foydalanilaganda atmosferaga chiqarib tashlanadigan CO miqdori karbonat angidrid miqdoriga teng bo'lishi va barcha yonish mahsulotlarining hajmini 10% yetishi mumkin.

Havoga chiqarilgan uglerod oksidining miqdori $250\text{-}500 \text{ mg/m}^3$ gacha yetadi va 4 oy mobaynida saqlanib qoladi. Havoda 0,01% dan ko'p CO bo'lsa, organizm sezilarli darajada zaharlanadi. Nafas olganda qondagi gemoglsbin bilan bog'lanib, undan kislorodni siqib chiqaradi, natijada kislorod etishmovchiligi boshlanadi va markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiladi. Surunkali zaharlanish bosh og'rig'i, quloq shang'llashi paydo bo'lishida, nafas olish qiyinlashishida, umumiy holsizlanish namoyon bo'ladi.

Azot oksidlari - NO, NO_2 - erkin kislorod bo'lganda yuzaga keladi. $\alpha=1,05\text{-}1,07$ bo'lganda eng ko'p miqdorda hosil bo'ladi. Azot II oksid ko'zning shilliq pardasini, o'pkani yallig'lantiradi, yurak-qon tomir sistemasida tuzalmaydigan kassaliklarga olib keladi.

Alqdegidlar - zaharli bo'lib, tarkibida kislorodli molekulari bo'ladi va ular qisman oksidlangan uglevodorodlarga kiradi. Benzinda ishlaydigan dvigatellarda detonasion yonishda alqdegidlar ajralib chiqadi. Shuningdek, IYOD kichik yuklanish bilan ishlaganda yoki sovuqlayin ishga tushirilganda alqdegidlar chiqadi. Benzinli dvigatellarda alanga sovuq devorga tegadigan joyda ko'p miqdorda yonmay qolgan uglevodorodlar paydo bo'ladi.

Oltингugurtli - gaz kislotani hosil qiladi va kislotali yomg'irning asosiy komponenti hisoblanadi. Yonilg'i tarkibidagi oltингugurt yonish jarayonida sulqfit angidrid va vodorod sulqfitga aylanadi. So'ngra Oltингugurt II-oksidi atmosferadagi suv bug'i bilan birikib sulfat kislota (H_2SO_4) ni hosil qiladi. Bu kislota odam organizmini zaharlabgina qolmay, balki yonilg'i berish apparatlarining detallarini, silindrлar yuzasini, klapanlar va ularning uyasini yemiradi. Sulfat angidrid qon ishlab chiqaruvchi organlar – ilik va qorajigarni yallig'lantirib, uglevodlar almashinuvini buzadi.

Qo'rg'oshin birikmaları - Etillangan benzindan foydalanilganda dvigatel va inson organizmi uchun juda zaharli bo'lgan qo'rgoshin birikmalarini chiqaradi. Etillangan benzinlar tarkibida antidetonator sifatida kuchli zaharli modda tetraetilqo'rg'oshin ishlatiladi. Qo'rg'oshin birikmalar organizmda to'planib, moddalar almashinuvni buzilishiga olib keladi. Qo'rg'oshin birikmalar kanserogen moddalar kabi, organizmdan chiqib ketmay, xavfli konsentrasiyaga aylanadi. Qo'rg'oshin birikmaları inson organizmida to'qimalarni, nerv tizimini, oshqozon-ichak traktini ishdan chiqishiga, hamda modda almashinish jarayonini buzilishiga olib keladi. Etillangan avtomobil benzinlarida tetraetilqo'rg'oshin miqdori etil suyuqligiga nisbatan juda kam va benzinning zaharliligi bir necha barobar past bo'lishiga qaramay, ulardan ehtiyot bo'lib foydalanish lozim.

Avtomobillar chiqaradigan gazlarning tarkibiy qismi (1000 litrga, kg)

Chiqindi gazlar tarkibi	Yonilgi turi	
	benzinli yonilg'i	dizel yonilg'isi
Is gazi	27	7,4
Uglevodorodlar	24	16,4
Azot oksidi	13,5	26,4
Aldegidlar	0,5	1,2



Sulfit angidridi	1,1	4,8
Organik kislotalar	0,5	3,7
Qo'rg'oshin	0,4	-

Bitta avtomobil yiliga 800 kg uglerod oksidi, 40 kg azot oksidlari va 200 kg turli uglevodorodlar chiqaradi. Ayniqsa chorraxalardagi svetoforlar atrofida to'planadigan uglevodorod kanserogenlar o'ta xavflidir. Bu chiqindi tashqi muxitda va inson organizmida yig'ilish qobiliyatiga ega.

Demak, avtomobil transporti atrof-muhitni ifoslantiruvchi kuchli manba bo'lib, undan atmosferaga chiqayotgan chiqindilar miqdori avtomobillar soni va uning texnik holati hamda ishlatilayotgan yoqilg'ilar turlari bilan belgilanadi. Neft mahsulotlari bilan ta'minlovchi tashkilotning neft omboridan olinadigan har bir neft mahsuloti uchun uning sifat pasportini talab qilish zarur. Avtotransport korxonalari ishchi xodimlari avtomobillarda ishlatiladigan yonilg'ilarning ekologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari lozim. Yonilg'ilarning ekologik xususiyatlari deganda, ularni tashish, saqlash, quyish yoki almashtirish jarayonlarida odam va atrof-muhitga ta'siri tushuniladi.

Avtomobilarning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun dvigatelning ish rejimini aniq tanlashni, ularda ishlatiladigan yonilg' va moylash materiallaridan to'gri foydalanish usullarini bilish kerak. Chunki, avtomobil transportini uzoq vaqt ishonchli va samaradorli ishlashi neft maxsu-lotlarining sifatiga, undan oqilona, tejab-tergab foydalanishga bog'liq. Bundan tashqari energiya ressurslarini chegaralangan sharoitida, ekspluatatsion materiallarni tashib kelish va tarqatishda sarfni me'yorlash va iqtisod qilish, avtomobil parkini kam harajatlar sarflab ushlab turishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Джерихов В.Б. Автомобильные эксплуатационные материалы: учеб. пособие. гос. архит.-строит. ун-т. – СПб., 2009. – 256 с.
2. Захаров Е.А. Экологические проблемы автомобильного транспорта: учеб. пособ. / Е.А. Захаров, С.Н. Шумский; – Волгоград, 2007–107 с.
3. Коваленко, В. П., & Улюкина, Е. А. (2010). Влияние загрязнения нефтепродуктов на состояние окружающей среды при эксплуатации мобильной техники. *Международный технико-экономический журнал*, (5), 87-90.
4. Алимова, З., & Махамаджанов, М. (2021). Экологическая безопасность при использовании горюче - смазочных материалов. Теория и практика современной науки. Учредители: "ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (11), 12-16.
5. Alimova, Z., Makhamajanov, M. I., & Magdiev, K. (2022). The effect of changes in the viscosity parameters of engine oils on the operation of engine parts. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(10), 151-154.
6. Khamidullaevna, A. Z., & Akhmatjanovich, M. M. I. (2021). Environmental Safety in use Flammable Lubricants. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 83-85.



7. Sobirjonov, A., Alimova, Z. X., Niyazova, G. P., & Abduxalilov, X. T. (2015). Uluchshenie ekologicheskix pokazateley zaštitnyx i smazochnyx materialov. In *Sborniki konferensiy NITS Sotsiosfera* (No. 8, pp. 21-23). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
8. Xamidullayevna, A. Z., & Ahmatjanovich, M. M. I. (2021). Study of Anti-Corrosion Properties of Lubricants and Ways to Improve them. *Design Engineering*, 3811-3819.
9. Alimova, Z. X. (2011). Transport vositalarida ishlatiladigan ekspluatatsion materiallar. *Toshkent, "Fan va texnologiya"*-2011.
10. Alimova, Z., Makhamajanov, M., & Magdiev, K. Мировая Наука. *МИРОВАЯ НАУКА* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (11), 7-11.
11. Алимова, З. Х., Махамаджанов, М. И. А., Магдиев, К. И., & Ниязова, Г. П. (2023). Механизм образования экологически опасных загрязнителей атмосферы. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 24-31.